

TIL TARAQQIYOTIDA LEKSIK O'ZGARISHLAR

Jabborova Gulrux

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilining leksik o'zgarishlar va unda o'zlashma birliklarning ahamiyati aks ettirilgan. Shuningdek, bu birliklardan voz kechishning imkonsizligi va hozirgi muhim masala – endigi o'zlashayotgan birliklarga munosib javob qaytarish masalasi ilgari surilgan. Til bilan madaniyatning o'zaro munosabati xususida gapirganda “madaniyat” tushunchasi xususida batafsil to'xtalish zarur. Ushbu tushunchani talqin qilish yuzasidan ko'plab urinishlar mavjud.

Kalit so'zlar: Leksika, leksik, o'zlashgan, leksema, izohli lug'at, lisoniy birliklar, so'z shakli.

LEXICAL CHANGES IN LANGUAGE DEVELOPMENT

Annotation: The article reflects the lexical changes of the Uzbek language and the importance of its acquired units. Also, the impossibility of abandoning these units and the current important issue - the issue of a suitable response to the units that are now being mastered were put forward. When talking about the interaction between language and culture, it is necessary to dwell in detail on the concept of "culture". There are many attempts to interpret this concept.

Key words: Lexicon, lexicon, special layer, acquired layer, lexeme, explanatory dictionary, linguistic units, word form, grammatical form.

Har bir hodisaning o'ziga xos shakli bor. Bunday o'zgarish va til shakliga ega. Uning o'zgarish shakli shundan iboratki, u muloqot jarayonini buzmaydi va shuning uchun so'zlovchi uchun muloqot paytida til o'zgarmagan ko'rinadi. Lekin shu bilan birga, aynan muloqot jarayonida o'zgarishlar bo'lishi aniq. Ishlamaydigan til o'likdir. U o'zgarmaydi yoki rivojlanmaydi.

Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillarni ajratish mumkin. Ichki omillarga kiradi uzluksizlik va innovatsiya. Til hodisalari evolyutsiyasi davomiylik bilan tavsiflanadi. Har qanday elementni almashtirish uchun (va o'zgaruvchan tizimda o'zgarishning o'zi bir elementni boshqasiga almashtirishga qisqartiriladi), ma'lum darajada bir xil bo'lishi kerak. Ammo har bir birlikning o'ziga xos xususiyati bor, shuning uchun u o'rinbosar birlikka teng bo'lishi mumkin emas. Ushbu ikki xususiyat - o'ziga xoslik va o'ziga xoslik ichidagi farq - tizimning rivojlanishi uchun zarur bo'lib chiqadi. Bunday parallel birliklar tarixan uzoq vaqt mavjud bo'lishi mumkin (masalan, variantlar, sinonimlar shaklida). Demak, o'zgarish til taraqqiyotining ichki omillaridan biridir.

Lug'at boyligi muayyan tilga xos bo'lgan lisoniy birliklarning miqdori bilan o'lchanmasligi bugun barchaga ayon. Chunki hech bir lug'at xalq tilining barcha

qirralarini, jabhalarini, kechinmalarini qamrab olmaydi. Qaysidir tilning lugʻat boyligini aniq raqamlar bilan ifodalash, aslida, imkonsiz. Tilning boyligini qayd etish uchun uning leksik oʻzgarishi bilan bir qatorda, ifoda yoʻsini, xalqona iboralar, maqollar, matallar, shuningdek, morfologik va sintaktik yaxlitlashgan shakllarning qamrovi bilan ham hisoblashish lozim. Bir jamiyatning taraqqiyoti boshqa jamiyatga ham bogʻliq boʻlganidek, tillarning oʻzaro yaqinlashishi, birining ikkinchisiga taʼsir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon barcha tillarda uchraydi va hech bir til oʻzining mutlaq leksik mustaqilligiga ega emas. Bugungi xalqaro mavqega ega tillar ham ayni shu jarayondan xoli emas. Har bir til asosan oʻz lugʻat sostavi va grammatik qurilishi bazasida ichki taraqqiyot qonunlari boʻyicha oʻsib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, til kollektivlarining oʻzaro aloqasi natijasida bir til ikkinchisini boyitib boradi.

Tilning oʻzlashma soʻzlar hisobiga ham boyib borishini tilshunos olim – Miraziz Mirtojiyev ham ayrim misollar bilan taʼkidlab oʻtgan: “Soʻz oʻzlashtirish, yaʼni oʻzlashma soʻzlar hisobiga ham oʻzbek tilida antonimlar tarkib topadi. Masalan, forsha doʻstva dushman, xafava xursand, arabcha muhabbatva nafrat, azobva rohat, rus tili orqali oʻzlashgan aktivva passiv, importva eksportsoʻz juftliklari oʻzbek tilida ham antonim hisoblanadi”. [3: 226] Oʻzbek tili leksikasi oʻz taraqqiyoti natijasida juda koʻplab bosqichlarni bosib oʻtgan. Maʼlumki, tilning boyishi ikki manba hisobiga yuz beradi. Avvalo, ichki imkoniyatlari asosida soʻz yasash, shevalardan soʻz oʻzlashtirish va ehtiyoj tugʻilganda, eskirgan leksika qatidan muayyan birliklarni qaytarish hisobiga oʻzbek tilining imkoniyatlari oshib bormoqda. Shuningdek, oʻzga tillardan soʻz oʻzlashtirish jarayoni ham, bir vaqtlar boʻlganidek, bugungi kunda yanada faollashib bormoqda. Oʻzbek tili leksik qatlami taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim oʻzgarishlarni hisobga olgan holda maʼlum bir davr bosqichlari asosida oʻrganish mumkin. Oʻzbek tili qadimgi turk tilidan oʻsib chiqib bugungi maqomiga yetgunga qadar uzoq yoʻlni bosib oʻtgan va oʻz-oʻzidan bu yoʻlda leksik zaxiraning bir tomondan boyishi, boshqa tomondan esa kambagʻallashishiga duch kelgan deyish oʻrinli. Chunki yangi leksemalar va grammalarning tildan oʻrin olishi tilni boyitish bilan birga, tilning asosiy boyligi boʻlgan qaysidir tub birliklarning oʻrnini egallashi yoki ahamiyatini susaytirishi turgan gap. Yangi tushuncha bilan birgalikda oʻrinlashgan leksik birliklar esa tilda ayni shu jihatda javob qiladigan, yaʼni soʻz “ishlab chiqaradigan korxona”ning mavjud emasligini koʻrsatishi bilan birga, bunga boʻlgan ehtiyojsizlikni (dangasalik) keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda ingliz tilidan bevosita oʻzlashayotgan soʻzlar imlosida ham ogʻriqli nuqtalar yuzaga kelmoqda. Bu esa tilshunoslardan leksikografiya, orfoepiya va orfografiya yuzasidan chuqur asosli tadqiqot ishlari talab etilishini bildiradi. Masalan: *investor* (*investor*), *katalog* (*catalogue*), *programma* (*program*),

plastik (plastic), minimal (minimum), laboratoriya (laboratory), eksperiment (experiment) va.b

Umuman olganda, leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekan, bu hodisani to'g'ri qabul qilmoq va o'z vaqtida yetarlicha choralar ko'rilmog'i kerak.

Xulosa qiladigan bo'lsak til taraqqiyotini rivojlantirishda asosiy ro'l leksik jihatdan uning o'zlashgan so'zlar bilan munosabat qilishidadir. Har bitta tilning leksemalari o'zlashgan bo'ladi.

References:

1. O'zbek tili leksikologiyasi (jamo). –Toshkent, «Fan», 1981.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.:O'qituvchi, 1975.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –T.: Mumtoz so'z, 2010.
4. Badiiy publististik adabiyotlar “ TIL VA EL “ “ TIL VA ADABIYOT SIYOSATI”.
5. O'zbek tili leksikologiyasi (jamo). – Toshkent, «Fan», 1981.
6. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1975.
7. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so'z, 2010.
8. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 2005.
9. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
- 10.O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. – T.: O'zME, 2007.
- 11.O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. – T.: O'zME, 2007.